

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSc.08/2025.27.12.V.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

RUZIYEV ADHAM ISKANOVICH

**ITLARDA OTITLARNING UCHRASH DARAJASI, DIAGNOSTIKASI
VA DAVOLASH USULLARINI TAKOMILASHTIRISH**

**16.00.02-Hayvonlar patologiyasi, onkologiyasi va morfologiyasi. Veterinar
akusherligi va hayvonlar reproduksiyasi biotexnikasi.**

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
ветеринарным наукам**

**Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD)
on veterinary sciences**

Ruziyev Adham Iskanovich

Itlarda otitlarning uchrash darajasi, diagnostikasi va davolash usullarini
takomilashtirish..... 3

Рузиев Адхам Исканович

Распространённость отитов у собак их диагностика и
совершенствование методов лечения..... 21

Ruziyev Adham Iskanovich

Prevalence of otitis in dogs, their diagnosis and improvement of treatment
methods 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI
DSc.08/2025.27.12.V.11.01 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

RUZIYEV ADHAM ISKANOVICH

**ITLARDA OTITLARNING UCHRASH DARAJASI, DIAGNOSTIKASI
VA DAVOLASH USULLARINI TAKOMILASHTIRISH**

**16.00.02-Hayvonlar patologiyasi, onkologiyasi va morfologiyasi. Veterinar
akusherligi va hayvonlar reproduksiyasi biotexnikasi.**

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.1.PhD/V116. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ssuw.uz) hamda «Ziynet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:	Niyozov Hakim Bakoevich veterinariya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Dilmurodov Nasriddin Boboqulovich veterinariya fanlari doktori, professor Eshqobilov To'ra Jo'rayevich tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.V.11.01 raqamli ilmiy kengash asosida 2026-yil 2-may soat «13:00» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77- uy Tel./faks (99855) 707-76-86; e-mail: ssuw@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14361 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77- uy Tel./faks: (99855) 707-76-86

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «18» aprel kuni tarqatildi
(2026-yil «18» apreldagi №12- raqamli reestr bayonnomasi)



X.B.Yunosov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, b.f.d., professor

K.X.Urokov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, v.f.d (PhD), dotsent

Q.N.Narhoev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, v.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida aholi qaramog'idagi hamda kuch salohiyatiga ega bo'lgan davlat tuzilmalaridagi kinologiya xizmatidagi xizmat vazifalarini bajarayotgan itlar orasida uchraydigan barcha kasalliklar, jumladan, jarrohlik kasalliklari itlarni xizmat vazifalarini bajarishda eng katta to'siqlardan biri bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda dunyoda milliarddan ortiq it mavjud, bo'lib, ular orasida quloq kasalliklari barcha kasalliklarning 20%ini tashkil qiladi¹. Ya'ni it va mushuklarda zamonaviy naschilik bu inson faoliyatining turli sohalarida muhim ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar ahamiyatga ega bo'lgan yirik rivojlangan sanoatdir. Hozirgi kunda aholi qaramog'idagi va kinologiya markazlarida quloq kasalliklari muammosi, ayniqsa otitlarning uchrash darajasi, iqtisodiy zarari, kechish xususiyatlari va simptomlarini aniqlash, hamda farmakoterapevtik vositalarning samaradorligini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Itlar nafaqat insonlar hayotida uy hayvoni, balki xizmat, terapevtik va sport faoliyatida keng foydalanadigan jonivorlar hisoblanadi. Shu sababli ularning sog'lig'ini saqlash masalasi ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Itlarning turli kasalliklarini o'z vaqtida oldini olish, ularning sog'ligi bilan bog'liq turli muammolarni bartaraf etish veterinariya xizmatining asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, veterinariya klinikalariga bo'ladigan murojaatlarning har to'rtta murojaatdan bittasi quloq kasalliklari bilan bog'liq. Bu kasalliklarning keng tarqalishi, davolash va parvarish xarajatlarini oshirib, hayvonlarning ishga yaroqliligini pasaytiradi. Ayniqsa, xizmat itlari, qidiruv va terapevtik hayvonlarda otitlar ularning asosiy vazifalarini bajarish qobiliyatini cheklaydi, bu esa iqtisodiy va amaliy yo'qotishlarga sabab bo'ladi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida hozirga qadar itlar orasida otitlarning kelib chiqishi, turlari, etiologik omillari, tarqalishi va iqtisodiy zararini aniqlash bo'yicha tizimli ilmiy tadqiqotlar olib borilganligiga qaramasdan, ushbu kasalliklarga o'z vaqtida tashxis qo'yish, samarali davolash va oldini olish usullari hamda farmakologik vositalarning ta'sir mexanizmi bo'yicha yagona ilmiy xulosaga kelinmagan. Ushbu patologiyani erta tashxislash usullarini ishlab chiqish, davolashda yuqori samarali dori vositalarini qo'llash hamda regenerasiya jarayonlarini tezlashtiruvchi farmakoterapevtik vositalarning me'yori va dozalarini belgilashga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizning aholi qaramog'idagi hamda kuch salohiyatiga ega bo'lgan davlat tuzilmalaridagi kinologiya xizmatiga chet eldan olib kelinayotgan zotli xizmat itlar orasida tarqalgan otit kasalliklarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni muntazam o'tkazilib borilayotganligiga qaramasdan, ularda otitlarning uchrash darajasi yuqoriligicha qolmoqda. Shu boisdan, kuch salohiyatiga ega bo'lgan davlat tuzilmalaridagi kinologiya xizmatidagi mavjud sharoitlaridan kelib chiqqan holda, zotli itlar orasida yiringli tashqi otitlarini ilmiy asoslangan erta tashxislash, oldini olish va samarali davolash tizimini takomillashtirish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

¹ Саламова В.Х. Отит у собак. Домашний ветеринарный справочник для владельцев собак. М. 2008. –392 с.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi PF-57-son Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»²gi, farmoni, 2019-yil 28-martdagi PF-5696-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni, 2020-yil 29-yanvardagi PQ-4576-son «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022-yil 8-fevraldagi PQ-121-son «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentyabrdagi 750-son «Ichki ishlar organlarining kinologiya xizmatlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Itlarda yiringli tashqi otitlarning sabablari, tashxisi, davolash va oldini olish usullari bo'yicha xorijiy mualliflardan V.X.Salyamova, A.O.Vechkanova, S.Yu.Karabanov, K.A.Pogodaeva, M.A.Ishutinova, T.Burseva, S.A.Veremeeva, D.A.Viktorov, Ye.A.Glazunov, A.S.Akjiqitov, M.Krapf, L.R.Perry, Y.Li, A.J.Santos, A.H.Sewid, V.Silva, C.Cafarchia, S.B.King, S.R.Pilar va boshqalar, Respublikamiz olimlaridan B.D.Narziyev, R.M.Tashtemirov, H.B.Niyozov va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va ilmiy-amaliy natijalarga erishilgan.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, respublikamizdagi aholi qaramog'idagi hamda davlat tuzilmalari kinologiya xizmatlaridagi xizmat itlari orasida yiringli tashqi otitlarning uchrash darajasi, turlari va etiologik omillarini aniqlash, erta tashxislash hamda samarali davolash bo'yicha tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti bilan Samarqand viloyati ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizlik xizmati jamoat tartibini saqlash boshqarmasi kinologiya bo'linmasi xizmat itlari pitomnigida «Xizmat itlarida uchraydigan barcha yuqumli, parazitlar va yuqumsiz kasalliklarni oldini olish va davolash» (Shartnoma №205., 15.10.2025 y, №31., 23.01.2023 y), bo'yicha shartnomalar asosida bajarilgan.

²Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi Uzbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

Tadqiqotning maqsadi: Aholi qaramog'idagi va xizmat itlari orasida yiringli tashqi otitlarning uchrash darajasini aniqlash, ertachi tashxis, gematologik o'zgarishlari va klinik belgilarini o'rganish hamda samarali davolash usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Samarqand viloyati sharoitida aholi qaramog'idagi va xizmat itlari orasida yiringli tashqi otitlarning uchrash darajasini va sabablarini aniqlash;

tashqi otitlarga ertachi zamonaviy tashxis qo'yish usulini qo'llash boyicha tadqiqotlar olib borish;

quyonlarda eksperimental usulda chaqirilgan o'tkir yiringli tashqi otitlarni samarali davolash usullarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish;

itlarda yiringli tashqi otitlarni samarali davolash usullarini takomillashtirish bo'yicha tajribalar o'tkazish;

itlarda tashqi otitlarni ertachi tashxislash va davolash bo'yicha ilmiy asoslangan samarali usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Samarqand viloyatining aholiga tegishli va kuch salohiyatiga ega bo'lgan davlat tuzilmalaridagi kinologiya markazi pitomniklari sharoitida saqlanayotgan itlar, ulardan olingan qon va yiring suyuqligi namunalari, sefotaksim-BXF3, futsis, levomitsetin spirti, dioksidin, ximotripsin, gidrokortizon va adrenalini preparatlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib itlar quloqlari patologik jarayonlaridan olingan yiring pl1 ko'rsatkichi, undagi mikroorganizmlar turlari, nisbiy ko'rsatkichlari va mikroorganizmlarning dori vositalariga sezuvchanligi, tajriba hayvonlarining klinik, gematologik ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarni amalga oshirishda klinik, gematologik, biokimyoviy, endoskopik, otoskopik, bakteriologik, mikrobiologik hamda matematik-statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Samarqand viloyati aholi qaramog'idagi va kinologiya pitomniklari hamda priyutlardagi itlarda yiringli tashqi otitlar yil fasllari bo'yicha qishda o'rtacha 35,8%, zotlar bo'yicha mahalliy (zotsiz) itlarda o'rtacha 40%, yoshi bo'yicha 1 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan itlarda o'rtacha 64,16% uchrashi aniqlangan;

itlarda yiringli tashqi otitlarning asosiy sababi mexanik shikastlanishlar va mikroorganizmlar (*Proteus spp.*, *Staphylococcus epidermidis*, *Staphylococcus saprophyticus*, *Streptococcus spp.*, *Escherichia coli*, *Pseudomonas aeruginosa*) ekanligi ilmiy asoslangan;

quyonlarda eksperimental usulda hosil qilingan o'tkir yiringli tashqi otitlarni davolashda sefotaksim-BXF3, novokain eritmasi, flukonazol, levomitsetin spirti, dioksidin, ximotripsin, gidrokortizon, adrenalinni birgalikda qo'llash yuqori samara berishi aniqlangan;

yiringli tashqi otitlar bilan kasallangan itlarni davolashda sefotaksim-BXF3 40 mg/kg, 0,5% 5 ml novokainda eritilib muskul orasiga, futsis 10 mg/kg vena qon

tomiriga har 24 soatda bir marta jami uch marta, levomitsetin spirti 0,25% 25 ml, dioksidin 1 ml, ximotripsin 1 ml, gidrokortizon 1 ml, adrenalın 1 ml aralashtirilib quloq ichiga 3 tomchidan 5 kun qo'llashga asoslangan davolash usuli ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyatidagi aholi qaramog'idagi va kuch salohiyatiga ega bo'lgan davlat tuzilmalaridagi itlarda yiringli tashqi otitlarni yil fasllari, zoti va yoshi bo'yicha uchrash darajasi va keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlangan;

itlarda klinik, endoskopiya, otoskop yordamida qondagi morfologik va biokimyoviy hamda mikrobiologik tekshirishlarga asoslangan otitlarga ertachi tashxis usuli ishlab chiqilgan;

sefotaksim-BXF3, futsis, levomitsetinning spirtli eritmasi, dioksidin, ximotripsin, gidrokortizon va adrenalın dori vositalarini terapevtik xususiyatlarini o'rganish orqali yiringli tashqi otitlarni davolashda dori vositalarini ma'lum miqdor va tartib asosida qo'llashga asoslangan etiopatogenetik davolash usuli takomillashtirilgan;

yiringli tashqi otitlarda bitish jarayonini tezlashtirish uchun dori vositalarini ma'lum miqdor va tartib asosida qo'llashga asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Tadqiqotning zamonaviy usullar va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, birlamchi ma'lumotlarga statistik ishlov berilganligi va amaliy tahlil qilinganligi, olingan nazariy natijalarning tajriba ma'lumotlari bilan mos kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar natijalari bilan qiyosiy tahlil qilinganligi, mutaxassislar tomonidan ilmiy tadqiqotlar va birlamchi materiallarga ijobiy baho berilganligi, ilmiy ish natijalarining ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, sefotaksim-BXF3, futsis, levomitsetinning spirtli eritmasi, dioksidin, ximotripsin, gidrokortizon va adrenalın dori vositalarining terapevtik xususiyatlarini o'rganish orqali preparatlar qo'llanilganda hayvonlarning klinik va gematologik ko'rsatkichlari tahlil qilinganligi, davolash usullarining samaradorligi nazariy va amaliy jihatdan asoslanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, hozirgi vaqtda yiringli tashqi otitlarni yil fasllari, zoti va yoshi bo'yicha uchrash darajasi aniqlanganligi, kasallikni davolashda zamonaviy preparatlarning amaliyotga joriy qilinishi natijasida itlarning sog'ayish muddati 5-6 kunga qisqarishi, xizmat itlariga yetkazilayotgan iqtisodiy yo'qotishlarning kamaytirilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Itlarda otitlarning uchrash darajasi, diagnostikasi va davolash usullarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

«Itlarda yiringli tashqi otitlarni davolashni takomillashtirish» bo'yicha tavsiyalar (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 17 noyabr) ishlab chiqilgan va Samarqand viloyati kinologiya pitomniklarida,

Samarqand shahar hokimligi obodonlashtirish boshqarmasining nazoratsiz hayvonlarni saqlash bo'limidagi qarovsiz itlarni saqlash priyutida, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi maxsus operatsiyalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi maxsus tayyorgarlik o'quv markaziga qarashli xizmat itlarida hamda Samarqand hududidagi aholiga qarashli itlarda joriy qilingan. (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 11 dekabrda 02/23-915-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyalar qo'llanilishi natijasida itlarda quloq sohasining shikastlaridan yuzaga keladigan turli darajadagi yiringli tashqi otitlarni samarali davolashga erishilgan;

Itlarning yiringli tashqi otitlarida bitish jarayonini tezlashtirish maqsadida, sefotaksim-BXF3 40 mg/kg miqdorda 0,5% 5 ml novokain eritmasida eritilib muskul orasiga, futsis 10 mg/kg miqdorda vena qon tomiriga har 24 soatda bir marta jami uch marta, levomitsetin spirti 0,25% 25 ml, dioksidin 1 ml, ximotripsin 1 ml, gidrokortizon 1 ml, adrenalin 1 ml aralashtirilib quloq ichi yuvilib va keyingi kunlarda quloq ichiga 3 tomchidan 5 kun birgalikda dori moddalarini qo'llashga asoslangan davolash usuli ishlab chiqilgan va Samarqand viloyati kinologiya pitomniklarida, Samarqand shahar hokimligi obodonlashtirish boshqarmasining nazoratsiz hayvonlarni saqlash bo'limidagi qarovsiz itlarni saqlash priyutida, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi maxsus operatsiyalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi maxsus tayyorgarlik o'quv markaziga qarashli xizmat itlarida hamda Samarqand hududidagi ahliga qarashli itlarda joriy qilingan. (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 11 dekabrda 02/23-915-son ma'lumotnomasi). Ushbu davolash usulining qo'llanilishi natijasida kasal hayvonlarning 5-6 kun oldin sog'ayishiga erishilgan.

It va quyonlarda yiringli tashqi otitlarni oldini olish va ertachi tashxislash maqsadida veterinariya amaliyotida maxsus endoskopik usulini keng joriy etish tavsiya etiladi. Ushbu usulda kasallikning dastlabki bosqichlarida tashqi eshitish yo'lining shishi, giperemiyasi, yiringli va seroz suyuqliklar mavjudligi, shuningdek, otit rivojlanishiga sabab bo'luvchi begona jismlar aniqlanadi. Mazkur usulni qo'llash orqali yiringli otitlarning asoratlarini oldini olish hamda davolash samaradorligini oshirishga erishiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ularning 4 tasi Respublika va 1 tasi xorijiy ilmiy jumallarda hamda 9 ta respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallar to'plamlarida, 2 ta xalqaro konferensiyalarida nashr etilgan. Olingan natijalar asosida 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 5 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «Kirish» qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob'ekti va predmetlari, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «Adabiyot ma'lumotlarining tahlili» deb nomlangan birinchi bob uch qismga bo'lingan bo'lib, uning birinchi «Hayvonlarda eshitish organlarning anatomo-topografik tuzilishi» deb nomlangan qismida turli hayvonlarda eshitish organlarning anatomo-topografik tuzilishi to'g'risida respublikamiz va dunyo olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari natijalari keltirilgan. «Itlarda tashqi otitning tarqalishi, etiologiyasi va patogenezini» deb nomlangan ikkinchi qismida turli zotga mansub itlarda tashqi otitning tarqalishi, ularni keltirib chiqaruvchi omillar va patogenezini to'g'risidagi ilmiy adabiyotlar ma'lumotlari bayon etilgan. «Tashqi otitlarning diagnostikasi, kechishining klinik va morfologik xususiyatlari» deb nomlangan uchinchi qismida itlarda tashqi otitlarning zamonaviy diagnostikasi, kasallikni kechishining klinik va morfologik xususiyatlari bo'yicha ilmiy-amaliy va nazariy ma'lumotlar keltirilgan. «Otitlarni davolash va profilaktika choralari» deb nomlangan to'rtinchi qismida itlarda otitlarni turli bosqichlarida ularni davolash va oldini olish to'g'risidagi dunyo olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari natijalari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «Tadqiqotlar materiallari va usullari» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot joyi, ob'ekti va usullari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Ilmiy tadqiqot ishlari 2023-2025 yillar davomida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti «Veterinariya jarrohligi va akusherlik» kafedrasida, «Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya» kafedrasida laboratoriyasida, Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti «Mikrobiologiya va yosh hayvonlar kasalliklarini o'rganish» laboratoriyalari, Samarqand davlat tibbiyot universiteti ko'p tarmoqli klinikasining klinik-diagnostik laboratoriyasida, «Samarqand diagnostik» klinik laboratoriyasida, va Samarqand viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot laboratoriyalarida o'tkazilgan.

Ilmiy tekshirishlarda yiringli otit kasalliklarini uchrash darajasiga oid tadqiqot ishlari Samarqand viloyat Ichki ishlar vazirligi jamoat xavfsizlik xizmati jamoat tartibini saqlash bo'limi Kinologiya bo'linmasi xizmat itlari pitomnigida, Samarqand shahar qorasuv massivida joylashgan «Terra vita» qarovsiz itlarni saqlash preutida, Samarqand aylanma yo'l poligonida joylashgan, Samarqand shahar hokimligi obodonlashtirish boshqarmasining nazoratsiz hayvonlarni saqlash bo'limidagi qarovsiz itlarni saqlash priyutida hamda O'zbekiston Respublikasi

Ichki ishlar vazirligi maxsus operatsiyalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi maxsus tayyorgarlik o'quv markaziga qarashli xizmat itlarida o'tkazilgan.

Eksperimental tajribalar xizmat itlari pitomnigi va aholi qaramog'idagi itlarda olib borildi. Patologik jarayondagi klinik belgilar umumiy ya'ni ko'rik, palpatsiya va maxsus tekshirish endoskop, otoskop va videotoskop asbobi yordamida tekshirildi. Barcha tajribalarda qonning morfologik ko'rsatkichlarini Mindray-BC-20 avtomatik gematologik analizator yordamida, qonning biokimyoviy ko'rsatkichlari Mindray-BA-88A yarim avtomatlashgan gemanalizatorlari yordamida aniqlangan.

Dissertatsiyaning «Itlarda yiringli tashqi otitlarni keltirib chiqaruvchi omillar, ularning biologik va etiopatogenetik xususiyatlari» deb nomlangan uchinchi bobning «Itlarda yiringli otitlarning uchrash darajasi va ularni keltirib chiqaruvchi etiologik omillar» deb nomlangan birinchi qismida itlarda otitlarning uchrash darajasi etiologiyasi va patogenezini o'ziga xos xususiyatlarini tekshirish natijalari keltirilgan.

Tajribalarda aholi qaramog'idagi va kinologiya bo'linmalarida mavsumiy olib borilgan tekshirishlar natijalari ko'rsatishicha itlarda yiringli tashqi otit qish va bahor oylarida ko'proq uchrashi qayd qilindi. Bunda, jami aholi qaramog'idagi va kinologiya bo'linmalaridan 986 bosh hayvon klinik tekshirilganda ularning 120 boshida (12,2%) tashqi otit aniqlanib, shundan kasallangan itlarning (35,8%) qish oylarida, bahor faslida (28,3%), yoz faslida (21,6%), kuz faslida esa (14,1%) ni tashkil etdi, itlarning zotlari bo'yicha tekshirilganda, turli it zotlarida tashqi otitlarning uchrashi darajasi bir-biridan farq qilib, eng ko'p zotsiz (mahalliy) itlarda (40%), Rus spaniel zotli itlarida (15,8%), Labrador zotli itlarning (15%), O'rta Osiyo ovcharkasi zotli itlarda (12,5%), Nemis ovcharkasida (10%) qayd qilinib va eng kam Sharqiy yevropa ovcharkasida (3,3%) va Belgiya ovcharkasida (3,3%) kechayotganligi aniqlandi.

Turli yoshdagi itlarda tashqi otitlarning uchrash darajasi bir-biridan farq qilib, bunda tashqi otit ko'pincha bir yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan (64,16%) itlarda, kamroq 5 yosh va undan katta bo'lgan itlarida (30%) va eng kam 1 yoshgacha bo'lgan (5,83%) hayvonlarning yosh guruhiga to'g'ri keldi.

Ushbu bobning «Klinik ko'rsatkichlari» deb nomlangan qismida itlarda tashqi otitlarning klinik ko'rsatkichlari yoritilgan bo'lib, o'tkir yiringli otit bilan kasallangan itlar klinik ko'rikdan o'tkazilganda quloq atrofida suyuqlik aralash yiring bilan qoplangan. Quloqdan yiring oqib turganligi, itning bezovta bo'lishi, boshini chayqab turishi yoki og'rigan tomonga osiltirib turishi qayd qilindi. Paypaslaganda og'riq seziladi, mahalliy harorat yuqori, suyuqlikning harakati eshitilib turadi. Quloq ichidagi terisi qizargan va u qoramtir-sarg'ich rangda, hidli eksudat bilan to'lgan. Eksudatning ta'sirida teri maseratsiyaga uchragan. Ayrim itlarda tana haroratining ko'tarilishi, umumiy holati susaygani, ishtahaning pasayishi kuzatildi.

Katta yoshli itlarda kasallikning surunkali shakli ko'proq namoyon bo'ldi. Bunday itlarda, kasallikning qaytalanishi yiliga bir necha marta qayd etildi. Ushbu jarayonlarda klinik belgilar kamroq namoyon bo'lib va shikastlangan quloq

atrofida yiring qoldiqlari qotib qolganligi aniqlandi. Kasallangan itlarning umumiy ahvoli qoniqarli, tana harorati fiziologik me'yorga (38,5 °C) to'g'ri keldi, ishtahaning pasayishi kuzatilmadi. Quloq kanali sarg'ishdan och yashil ranggacha bo'lgan qalin yiringli massalar bilan ifloslangan va o'tkir yoqimsiz hid tez-tez qayd etildi.

Ushbu bobning «Yiringli tashqi otit bilan kasallangan itlar qulog'idan olingan namunalardagi mikroorganizmlar va zamburug'larning antibiotiklarga sezuvchanligi» deb nomlangan qismida mikroorganizmlar va zamburug'larning antibiotiklarga sezuvchanligi yoritilgan. Tadqiqotlarimizda tashqi otit bilan kasallangan 15 bosh itlarning patologik jarayonlaridan olingan namunalar Petri kosachalari ozuqa muhitlarida ekilgan mikroblar koloniyalari tekshirilganda, stafilokokkning 4 ta, streptokokkning 5 ta, esherixiya kolining 4 ta, ko'k yiring tayoqchani 4 ta, protey va enterokokklarning 3 tadan kulturalari ajratib olindi. Mikroblarni antibiotiklar va boshqa dori vositalariga sezuvchanligini aniqlash maqsadida petri kosachalarida o'sgan mikroblar koloniyasidan sof kulturani ajratib olish uchun har bir petri kosachalaridan bir dona kaloniyani olib 1:10 nisbatda 0.9% fizologik eritmada suyultirib ekildi va antibiotik va boshqa dori vositalari shimdirilgan disklar joylashtirilib termostatga qo'yildi. Termostadnan petri kosachalari olinganda disklar atrofida zonalar hosil bo'lganligi qayd qilindi. Hosil bo'lgan zonalar chizg'ich yordamida o'lchanganda Sefotaksim shimdirilgan disklarda Proteus 32 mm ni, Stafilokokk epidermide 27 mm ni, Stafilokokk saprofuticus 22 mm, Stereptokokk 23 mm, Esherixia koli 27 mm, Ko'k yiring tayoqchasi 23 ni, tashkil etdi. Seftriakson shimdirilgan disklarda Proteus 30 mm ni, Stafilokokk epidermide 24 mm ni, Stafilokokk saprofuticus 28 mm ni, Stereptokokk 21 mm, Esherixia koli 25 mm, Ko'k yiring tayoqchasi 23 tashkil etdi. Futsis shimdirilgan disklarda Proteus 28 mm ni, Stafilokokk epidermide 26 mm ni, Stafilokokk saprofuticus 18 mm ni, Stereptokokk 20 mm, Esherixia koli 22 mm, Ko'k yiring tayoqchasi 21 mm tashkil etdi. Flukonazol shimdirilgan disklarda Proteus 25 mm ni, Stafilokokk epidermide 27 mm ni, Stafilokokk saprofuticus 28 mm, Stereptokokk 18 mm, Esherixia koli 15 mm, Ko'k yiring tayoqchasi 13 mm ni, tashkil etdi. Levomer shimdirilgan disklarda, Proteus 23 mm ni, Stafilokokk epidermide 26 mm ni, Stafilokokk saprofuticus 27 mm, Stereptokokk 6 mm, Esherixia koli 7 mm, Ko'k yiring tayoqchasi 5 mm ni, tashkil etdi. Klodrimazol shimdirilgan disklarda Proteus 22 mm ni Stafilokokk epidermide 25 mm ni, Stafilokokk saprofuticus 26 mm, Stereptokokk 21 mm, Esherixia koli 13 mm, Ko'k yiring tayoqchasi 11 mm ni, Nistatin shimdirilgan disklarda Proteus 24 mm, Stafilokokk epidermide 23 mm ni, Stafilokokk saprofuticus 26 mm Stereptokokk 22 mm, Esherixia koli 16 mm, Ko'k yiring tayoqchasi 9 mm ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning «Quyondarda yiringli tashqi otitlarni samarali davolash usullarini ishlab chiqishda eksperimental tadqiqotlar» deb nomlangan to'rtinchi bobining «Quyondarning klinik ko'rsatkichlari» deb nomlangan qismida quyondarning klinik ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lib, ilmiy tadqiqotlar preutlarda yiringli tashqi otit bilan kasallangan itlardan ajratib olingan sof kulturani patogenligini aniqlash hamda hosil bo'lgan yiringli jarayonlarni farmakoterapiyasi

o'rganildi. Otitlarni davolashda turli davolash usullarini qo'llashning terapevtik samarasini o'rganish maqsadida tadqiqotlar ob'ekti sifatida tana vazni 2-2,5 kg bo'lgan 15 bosh xikol zotli quyonlar qulog'ida eksperimental usulda hosil qilingan o'tkir yiringli otit mavjud quyonlar "o'xshash juftliklar" tamoyili asosida 2 ta tajriba va 1 ta nazorat guruhiga ajratilib qiyosiy jihatdan o'rganildi, ular bir xil sharoitda saqlanib oziqlantirildi. Barcha guruhdagi quyonlarga ajratib olingan sof kulturaдан 0,2 ml quloqlarining teri ostiga yuborildi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Sefotaksim-BXF3, Flukonazol, levomitsetin spirti, dioksidin, ximotripsin, gidrokortizon va adrenalın preparatlar kombinatsiyasi eksperimental ravishda hosil qilingan yiringli tashqi otitlarni davolashni tezlashtirdi. Davolashda Sefotaksim-BXF3, flukonazol, levomitsetin spirti, dioksidin, ximotripsin, gidrokortizon va adrenalın preparatlar kombinatsiyasi guruhlarida nazorat guruhiga nisbatan kollagen konsentratsiyasining ko'payishini, reepitelizatsiyaning kuchayishini, yallig'lanishda bitish tiklanish jarayonlarini rag'batlantirib yaxshilanishini ko'rsatdi. Ushbu olingan natijalar Sefotaksim-BXF3, flukonazol, levomitsetin spirti, dioksidin, ximotripsin, gidrokortizon va adrenalın preparatlarini yiringli yallig'lanishini davolashni rag'batlantirish uchun terapevtik vosita sifatida ishlatilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Olingan natijalardan xulosa qilish mumkinki, davolash davomida tajribadagi uchala guruh quyonlaridagi klinik belgilardagi farqni tasdiqlash maqsadida, qonning morfologik ko'rsatkichlarini tahlil qilganimizda, birinchi, ikkinchi tajriba guruh hayvonlarida qonning morfologik ko'rsatkichlarining tez tiklanishi, xususan eritrotsitlar, gemoglobin miqdorlarini va eritrotsitlar cho'kish tezligi oshishi shikastlangan to'qimalarda yoki umuman organizmda oksidlanish-qaytarilish jarayonlarining jadal ko'tarilishidan dalolat beradi, leykotsit miqdorining tajriba davomida kamayib borishi ushbu guruh hayvonlarida patologik jarayonning tuzalishi, retikuloendotelial sistemasining stimullashidan darak beradi.

Disertatsiyaning «Itlarda yiringli tashqi otitlarni davolash» deb nomlangan beshinchi bobining «Yiringli tashqi otit bilan kasallangan itlarni kimyo-terapevtik usullarda davolash» deb nomlangan qismida tajribadagi itlarda tuzalish muddatlari qayd qilingan bo'lib, olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, Samarqand viloyati Samarqand viloyat IIB JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi xizmat itlari pitomnigi va aholi qaramog'idagi itlardan klinik tekshirish orqali yiringli tashqi otit kechayotgan 15 bosh it ajratib olinib, o'xshash juftliklar tamoyili asosida har birida 5 boshdan uchta guruhga 2 ta tajriba va 1 ta nazorat guruhlariga ajratildi.

Xulosa o'rında ta'kidlash joizki, itlarda o'tkir va surunkali yiringli otitning klinik belgilari bevosita kasallik darajasiga va shikastlanish intensivligiga qarab klinik belgilarini namoyon qildi hamda tuzalish vaqti ham bir-biridan keskin farq qildi ya'ni birinchi guruh itlarida o'tkir va surunkali yiringli otitni o'rtacha 18-22 kunni, ikkinchi guruhda o'tkir va surunkali yiringli otitning o'rtacha 21-23 kunni va shunga o'xshash uchinchi nazorat guruhida esa davolash muolajalari o'rtacha 24-27 kunni tashkil etdi. Barcha tajriba va nazorat guruhidagi itlarning quloqlaridagi morfologik va fiziologik funksiyalarining me'yor darajasida tiklanishi davolash muolajalari tugatilganidan keyin qayd qilindi.

Dissertatsiyaning ushbu bobining «Itlarning klinik ko'rsatkichlari» qismida itlarda klinik ko'rsatkichlari natijalari bayon etilgan.

Tajribadagi birinchi tajriba guruhidagi 1 bosh itning o'ng qulog'ida, 2 bosh itning chap va o'ng qulog'ida, hamda 2 bosh itning chap qulog'ida, ikkinchi tajriba guruhidagi 2 bosh itlarning chap va o'ng qulog'ida, 1 bosh itning o'ng qulog'ida, hamda 2 bosh itning chap qulog'ida, uchinchi nazorat guruhidagi 2 bosh itlarning chap va o'ng qulog'ida surunkali yiringli otit hamda 2 bosh o'ng, 1 bosh chap qulog'ida o'tkir otit jarayoni kechayotganligi aniqlandi.

O'tkir yiringli otit bilan kasallangan itlar klinik ko'rikdan o'tkazilganda quloq atrofi suyuqlik aralash yiring bilan qoplanganligi, quloqdan yiring oqib turganligi, itning bezovta bo'lishi, boshini chayqab turishi yoki og'rigan tomonga osiltirib turishi qayd qilindi. Paypaslaganda kuchli og'riq sezildi, mahalliy harorat yuqori, suyuqlikning harakati eshutilib turadi. Quloq ichidagi terisi qizargan va u qoramtir-sarg'ich rangda, hidli eksudat bilan to'lgan. Eksudatning ta'sirida teri metseratsiyaga uchragan. Ayrim itlarda tana haroratining ko'tarilishi, umumiy holati susaygani, ishtahaning pasayishi kuzatildi.

Tajribadagi barcha guruh itlarida kasallikning surunkali shaklida quyidagi klinik belgilar namoyon bo'ldi. Itlarda ushbu jarayonlarda klinik belgilar kamroq namoyon bo'lib va shikastlangan quloq atrofida yiring qoldiqlari qotib qolganligi aniqlandi. Kasallangan itlarning umumiy ahvoli qoniqarli, tana harorati fiziologik me'yorda ekanligi qayd etilib, ishtahaning pasayishi kuzatilmadi. Quloq kanali sarg'ishdan och yashil ranggacha bo'lgan qalin yiringli massalar bilan ifloslangan va o'tkir yoqimsiz hid tez tez qayd etildi.

Kasal itlarni otoskop va endoskop asboblari yordamida tekshirilganda tashqi quloqning eshitish yo'li qizargan, shishgan, kichik qon quyulish gematomalar qoramtir va qizil rangda ko'rindi va shilliq yuza shishi holatlari kuzatildi, boshini otit bilan kasallangan tomonga egib turishi namoyon bo'ldi, lekin mahalliy harorat kuzatilmadi.



1-rasm. Tajriba boshida. Birinchi tajriba guruh itlar qulog'ining endoskopda ko'rinishi



2-rasm. Tajriba boshida. Ikkinchi tajriba guruh itlar qulog'ining endoskopda ko'rinishi



3-rasm. Tajriba boshida. Uchinchi nazorat guruh itlar qulog'ining endoskopda ko'rinishi

Kasal itlar palpatsiya qilganda kuchli og'riq, flyukuatsiya ovoz, mahalliy harorat kuzatildi, endoskopiyada eshitish yo'li shishgan yiringni borligi aniqlandi,

kichik qora rangda yaralar va qon qo'yilishlar ko'rindi, shilliq qavadlari qoramtir sarg'ish rangda va quloq ichida yiring borligi aniqlandi, qo'lansa hidning bortigi bilan xarakterlandi, hamda boshini otit bilan kasallangan quloq tomonga egib g'ingshib ovoz chiqarib turadi, ishtahasi yo'q (1-2-3-rasm).



4-rasm. Tajribaning 25-kuni Birinchi tajriba guruh itlar qulog'ining endoskopda ko'rinishi.



5-rasm. Tajribaning 25-kuni Ikkinchi tajriba guruh itlar qulog'ining endoskopda ko'rinishi.



6-rasm. Tajribaning 25-kuni Nazorat guruh itlar qulog'ining endoskopda ko'rinishi.

